“QISASI RABG‘UZIY” DA KELTIRILGAN BAYTLI SHE'R SHAKLLARI

Xayrullayeva Huriniso Jahongir qizi

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari qimmatli diniy – adabiy manba sifatida e’tirof etilishining asosiy sabablaridan yana biri undagi nazmiy parchalardir. Mazkur parchalar Rabg‘uziyning o‘tnafas shoir sifatidagi qirralarini ham namoyish etadi va ularning ayrimlari mumtoz adabiyotimizda she’riy janrlarning dastlabki namunalari hisoblanadi. Asar tarkibidagi qissa va hikoyatlar hamda boshqa nasriy janrlarni o‘rganish qanchalik ahamiyatli bo‘lsa undagi she’riy parchalarning poetik xususiyatlarini aniqlash, tasnif va tahlil qilish bugungi kun adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalardandir.

Asarda she’riy parchalar kelish o‘rinlari turlichadir:

1. Biror qissaning boshlanish qismida shu qissa qahramoni tarifiga bag‘ishlangan she’rlar;
2. Muayyan qissada bayon etilayotgan voqea tarkibida qahramonlar tilidan aytiladigan she’riy parchlar;
3. Qissalar yakunida muallif tilidan xulosaga qo‘shimcha beriladigan she’riy parchalar.

Qissa tarkibida jami 600 misra she’r o‘rin olgan va ushbu she’rlar g‘azal, qit’a, fard, to‘rtlik, qasida, marsiya, musallas janrlarida bitilgan. Turkiy va arab tilida bitilgan mazkur nazmiy parchalar Rabg‘uziyning nozikta’b zullisonayn shoir bo‘lganlilgidan dalolat beradi.

“Qisasi Rabg‘uziy” dagi she’riy misralar nomlanishi turlicha va ayrimlari umuman hech qanday nomsiz keltiriladi. Bayt sarlavhasi ostida jami 9 ta she’riy parcha berilgan , bularning beshtasi turkiy, to‘rtta arabiy she’rlarga turkiy tarjimasi ilova qilib berilgan. “Bayt” arabchada uy deganidir va mumtoz she’riyatda ikki misrali she’rlar ham bayt atamasi bilan atalgan. Qolaversa, g‘azaldagi qo‘sh misralar ham ayni shu “bayt” atamasi bilan ataladi. Rabg‘uziy baytlarining aksari to‘rt va unadan ortiq misralardan iboratliligi bilan ham ajralib turadi. “Qissa” dagi dastlabki shunday bayt “Qissayi zabihi Ismoil alayhis – salom” bobida Hojar onamiz tillaridan aytilgan. Bayt aslida Ibrohim alayhissalomning o‘z o‘g‘illarini Olloh yo‘lida qurbon qilishga majbur bo‘lib olib ketayotganarida Hojar onamiz iblisdan bu xabarni eshitib, onaning farzandidan judolik dardi ifodasi bo‘lib yangraydi:

Bayt:
Ey ko‘nglum ovunchasi o‘grab yiroqga bormagil,
Yarliqqa yolg‘uz onangni bag‘rini o‘rtamag‘il.
Ushbu ketmagidin o‘lmakimni tanlar ersang sana,
Man o‘ngungda o‘layin san ichimni yondurmagil[1].

Shuningdek, baytdan tashqari “Qissa”da keltirilgan navbatdagi nazm istilohi “she’r” bo‘lib ushbu sarlavha bilan o‘n ikki o‘rinda she’r keltiriladi hamda ular ham ijodkorning individual uslubidan kelib chiqib ayni shu nom bilan atalgan. Bunday she’rlar to‘rt misradan o‘n to‘rt misragacha bitilgan.

She’r
Sabo istayur, yig‘och yeng solur
Bulut yig‘layur, chechaklar kular.
Bu mundog‘ chechaklikda ko‘nglum bu kun
Saning birla bo‘lub ovunmoq tilar. (1 – 121)

[1]Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Биринчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1990. – 78 б (Tahlilga olinadigan keyingi she’riy parchalar mazkur manbadan olinadi hamda sahifasi qavs ichida beriladi.)

“Yusuf” qissasida berilgan ushbu parcha Yusuf(a.s) ga dil izhori, sog‘inch hislarini ta’riflab uni ko‘rishmoqlika chorlayotgan Zulayho tilidan aytiladi. She’r 4 misradan iborat va avval tahlil qilganimiz “bayt” dan deayrli farq qilmaydi.

Asarda Rabg‘uziy tomonidan “Yusuf” qissasiga kiritilgan quyidagi to‘rtlik “Turkiy” atamasi bilan qo‘llangan.

Turkiy
Bu biztek qatig‘ qindakim bor bu kun,
Uruldi orig‘ jong‘a turluk tugun.
G‘ariblikda erksiz tushub iylanib,
Essiz o‘n qarindosh o‘larsiz bu kun (1–156).
Mazmuni:
Biz og‘ir ahvolga tushdik bugun,
Sof jonimizga turli zarba urildi.
G‘ariblikda, erksiz holda qiynalib,
Afsus, o‘n aka-uka bugun o‘lamiz.

Ushbu misralar Yusuf(a.s) tomonidan jazoga mustahiq qilingan aka – ukalar ichida omonlik tilab faryod qilayotgan Yaxudo tilidan aytilgan. Qizig‘i shundaki, ushbu to‘rtlikdan oldin arabcha ikkita to‘rtlik beriladi va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Rabg‘uziy shu arabiy she’rlarning turkiy tildagi tarjimasini “Turkiy” sarlavhasi ostida bergan.

“Qisasi Rabg‘uziy”da muallif tomonidan sarlavha berilmagan nazmiy parchalar ham anchagina. Payg‘ambarlarga bag‘ishlangan na’t, qahramonlar tilidan aytilgan, xulosa tariqasida berilgan she’rlar shular jumlasidandir. Xususan, Muhammad(s.a.v), Odam(a.s), Ibrohim(a.s), Ishoq(a.s), Lut(a.s), Yaqub(a.s) fazil – u karamlarini madh etuvchi she’rlarda sarlavha qo‘llanilmaydi. Ammo, ushbu parchalar ham qofiya va mavzu jihatidan g‘azal janri unsularini o‘zida jamlagan na’t g‘azallarning ilk namunalari hisoblanadi.

Asarda mumtoz she’r shakllaridan baytga hamda bandga asoslangan shakllardan foydalanilgan. Baytli she’r shakllarining asosini bayt (arabcha “uy”) tashkil qiladi. Ularga g‘azal, qasida, mustazod, qit’a, ruboiy, tuyuq, fard, muammo, lug‘z (chiston), ta’rix va boshqalar kiradi.[2] Bulardan Rabg‘uziy g‘azal, qit’a, fard, qasida, marsiya kabi janrlarni o‘z Qisasida qalamga oladi. Mazkur janrlar namunalarini quyida alohida tahlilda ko‘rib chiqamiz.

G‘azal – sharq mumtoz adabiyotda keng tarqalgan mazkur janr, turkiy adabiyotda dastlab aynan “Qisasi Rabg‘uziy”da uchraydi. Shu o‘rinda bir bahsli o‘ringa fikrimzni qaratsak. Juda ko‘plab adabiyotshunoslik manbalarida Yusuf qissasi tarkibiga kiritilgan “Bahoriyot” turkiy adabiyotda g‘azalning ilk namunasi deb keltiriladi.

Ostonoqulov o‘zining “Qisasi ar - Rabg‘uziy – adabiy asar” nomzodlik dissertatsiyasida: “Yodgorlikda asosan aruzning barcha talablariga amal qilib yozilgan g‘azallar asosan uchta – birinchisi, “Erning balosi ikki olam balosi qurtqa” misrasi bilan boshlanadi, ikkinchisi “Jilva birla solnu chiqg‘an ol yog‘oqlig‘ yoni qor” misrasi bilan boshlanadi, uchinchisi “Kun hamalg‘a kirdi ersa, keldi olam navro‘zi” misrasi bilan boshlanuvchi “Bahoriyoti Mavlono Nosiriddin Rabg‘uziy” dir”[3] degan fikrlarni keltiriladi. Ya’ni olim ham ushbu nazmiy parchani ilk namuna sifatida ko‘rsatmaydi. She’riy parchalar tahlillari davomida ko‘rishimiz mumkinki, asar tarkibida bag‘ishlangan “Qisasi Rabg‘uziy” asari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

---

[2] Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent. 2018. – 144-b.

[3] Остонакулов И. Қисас ар-Рабғузий – адабий асар. Фил.фаню номзодлик диссертация. – Тошкент, 1993. – 123 б.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поезиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. –71 б.

2. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Иккинчи жилд. – Т.: Фан, 1992. – 246 б.

3. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: 2019. – 184 b.

4. Арасту. Поэтика (Нафис санъатлар ҳақида). Ахлоқи кабир (Катта ахлоқ китоби). – Т.: Янги аср авлоди, 2004. – 194 б.

5. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. (А.Рустамов таржимаси). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва

WORDLY KNOWLEDGE